



JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-mart

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasid an.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **7739** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **107** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **7632** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-mart oyida chakana savdo tovar aylanmasi **1560,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **103,2 %** ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **99,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1002,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **458,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,2 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1560,5	103,2	99,5	110,7	1002,4	104,0
Jizzax sh	391,1	101,4	54,0	112,9	251,5	100,0
tumanlar :	0,0					
Arnasoy	28,1	65,1	0,4	70,2	27,3	98,4
Baxmal	148,7	111,4	1,0	87,3	66,9	101,6
G'allaorol	174,2	104,3	5,7	97,7	111,6	107,5
Sh Rashidov	191,4	116,7	3,1	530,2	151,6	116,9
Do'stlik	83,2	103,0	0,5	23,9	55,4	100,8
Zomin	171,1	99,8	32,3	121,4	82,5	101,2
Zarbdor	100,3	101,3	0,5	84,9	68,7	101,6
Mirzacho'l	49,7	102,1	0,4	76,5	27,2	97,7
Zafarobod	26,1	101,4	0,4	68,0	25,7	102,1
Paxtakor	101,	101,6	0,4	18,2	72,2	104,9
Forish	72,0	102,8	0,5	82,1	49,7	106,0
Yangiobod	22,6	102,2	0,2	62,7	12,1	96,5

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Sh.Rashidov (**116,7 %**), Baxmal (**111,4 %**), G'allaorol (**104,3 %**) va Do'stlik (**103,0 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1002,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **104,0** % ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **64,2** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **10,7** % ga o'sdi va **99,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyligining **6,4** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Zafarobod (**98,3 %**), Arnasoy (**96,7 %**) va Sh.Rashidov (**82,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (**18,4 %**), Jizzax shahri (**12,1 %**) va G'allaorol (**4,8%**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	1054,9	101,0
Jizzax sh	2032,6	98,8
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	584,0	64,2
Baxmal	890,0	109,0
G'allaorol	950,4	102,1
Sh Rashidov	806,3	113,7
Do'stlik	1205,8	101,2
Zomin	974,9	97,5
Zarbdor	1081,1	98,9
Mirzacho'l	909,8	100,2
Zafarobod	494,7	99,3
Paxtakor	1277,9	99,3
Forish	742,6	101,2
Yangiobod	766,9	100,9


2023-yilning yanvar-mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1054,9** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **101,0** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**2032,6** ming. so'm), Paxtakor (**1277,9** ming. so'm) va Do'stlik (**1205,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-mart oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **458,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **100,2** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor(dehqon) va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **62,0** mlrd. so'mni (77,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **59,1** mlrd so'mni tashkil etdi (**93,9** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	290,7	96,3	146,1	125,3	144,6	62,7
Jizzax sh	53,2	103,1	53,2	123,6	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,2	2,3	0,2	16,1	-	-
Baxmal	55,3	107,6	43,1	2 m	12,2	59,6
G'allaorol	36,9	108,6	7,2	76,6	29,7	94,0
Sh Rashidov	16,1	61,4	0,0	0,0	16,1	93,7
Do'stlik	17,1	130,1	2,5	44,1	14,6	91,4
Zomin	35,0	89,4	15,2	101,7	19,8	81,3
Zarbdor	24,8	109,3	6,8	61,3	18,0	69,3
Mirzacho'l	13,8	101,0	5,0	2,4 m	8,8	79,2
Zafarobod	0,0	0,0	-	0,0	-	-
Paxtakor	18,2	101,9	4,7	63,9	13,5	89,4
Forish	14,2	99,0	5,0	2,1 m	9,2	85,9
Yangiobod	5,9	58,1	3,2	117,4	2,7	63,3

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning fevral oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvি o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **62,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**24,3** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 24,3
	Non va non mahsulotlari 9,9
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 6,6
	Tovuq go‘shti 3,0
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 3,3
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 2,3
	Tuxum 4,6
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 3,4
	Ziravorlar 2,7
	Tuzlamalar 1,6
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 0,3
	Nooziq-ovqat tovarlari 0,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023-yilning mart oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **59,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **39,9** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **17,9** mlrd. so'mni, otlar – **1,0** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	21,3
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	9,2
 1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar	9,4
 Qo'ylar	15,6
 Otlar	1,0
 Echkilar	2,3
 Kurka, o'rdak, g'oz	0,2
 Tovuqlar	0,1
 Quyonlar	0,0
 Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yilning yanvar-mart oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **60,5** mlrd. soʻmga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **101,7** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **97,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	60,5	101,7	58,9	95,6	1,6	104,1
Jizzax sh	21,1	112,5	20,8	112,7	0,3	102,2

tumanlar :


Arnasoy	0,3	61,1	0,2	57,8	0,1	83,9
Baxmal	2,1	78,1	1,9	75,1	0,2	122,4
Gʼallaorol	2,0	106,7	1,9	107,2	0,1	100,2
Sh Rashidov	7,6	110,4	7,3	110,1	0,3	117,5
Doʻstlik	2,3	107,8	2,2	108,8	0,1	83,7
Zomin	10,9	87,1	10,7	86,4	0,2	137,7
Zarbdor	2,6	86,0	2,5	86,1	0,1	84,7
Mirzachoʻl	1,4	109,8	1,4	111,1	0,1	85,9
Zafarobod	1,6	115,1	1,6	116,4	0,0	83,7
Paxtakor	3,8	101,6	3,7	101,9	0,1	85,8
Forish	3,3	103,9	3,2	104,5	0,1	84,6
Yangiobod	1,5	97,5	1,5	97,6	0,0	87,1



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **832,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **69,2 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **286,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **52,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari savdo hajmi **526,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **82,2 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	832,5	100,0
Jizzax sh	136,1	16,3
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	-	-
Baxmal	461,3	55,4
G'allaorol	18,0	2,2
Sh Rashidov	142,1	17,1
Do'stlik	0,4	0,1
Zomin	67,0	8,0
Zarbdor	0,1	-
Mirzacho'l	-	-
Zafarobod	-	-
Paxtakor	0,2	-
Forish	3,0	0,4
Yangiobod	4,2	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**461,3** mlrd. so'm), Sh.Rashidov tumani (**142,1** mlrd. so'm) va Jizzax shaxri (**136,1** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **407,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **340,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **101,7 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **83,6 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

2023-yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **407,6** mlrd. soʻnni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **66,9** mlrd. soʻnni (oʼsish surʼati **93,8 %**), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **340,8** mlrd. soʻnni (oʼsish surʼati **101,7 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	407,6	100,3	66,9	93,8	340,8	101,7
Jizzax sh	172,6	98,0	16,7	75,2	155,9	101,3
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,5	16,7	0,0	2,3 m	0,5	16,3
Baxmal	51,8	144,6	45,8	150,2	6,0	112,4
Gʼallaorol	11,5	190,7	0,1	73,0	11,5	192,2
Sh Rashidov	51,6	135,1	0,1	36,3	51,5	135,5
Doʼstlik	24,0	70,6	3,9	22,5	20,2	119,8
Zomin	52,1	68,1	-	5,4	52,0	68,6
Zarbdor	5,3	42,8	-	145,2	5,3	42,8
Mirzachoʼl	26,5	502,6	0,1	100,9	26,4	5,0 m
Zafarobod	4,6	43,0	-	112,9	4,6	43,0
Paxtakor	5,2	178,6	0,1	54,7	5,1	188,6
Forish	0,9	89,2	0,1	57,6	0,8	94,4
Yangiobod	1,0	24,5	-	3,3 m	1,0	24,2



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 72-221-51-26